

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBЕК

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH

Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlari hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179

MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari.....184

ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА

Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования.....193

G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari.....208

USMONOVA MOHIGUL MANSUR QIZI

Yashil iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy-konseptual asoslari.....214

ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari.....223

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH

Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari.....234

TADJIYEVA SAYYORAXON URALOVNA

Hudud marketing kapitalining nazariy asoslari va konseptual modeli.....240

SHAMSIKULOVA MOXINA BONU FURKATOVNA

Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorij tajribasi.....254

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Oliy ta'limda iqtisodiy fanlarni o'qitish orqali talabalarning moliyaviy madaniyatini yuksaltirish.....261

SADIKOVA MUSLIMA ALISHER KIZI

Implementation of international standards in the corporate governance system of joint-stock companies of Uzbekistan.....270





XAMDAMOV SARDOR FARMON O'G'LI

Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi: tushunchasi, tarkibiy elementlari va amal qilish tamoyillari.....276

SHAMSIDINOVA ZILOLAXON MAXMUDJON QIZI, MITILLAYEV IBROHIMJON

Diversifikatsiyalanayotgan bank resurslarida likvidlikni boshqarish.....281

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Ta'lim – moliyaviy savodxonlikni oshirishning asosiy vositasi sifatida: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....290

TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH

Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish.....299

ТЛЕУМУРАТОВА БАХАДИРА ГЕНЖЕМУРАТОВИЧА

Развитие и повышение эффективности сферы услуг (на примере Республики Каракалпакстан).....314

ISOQOV HASAN ABDUXALIMOVICH

Mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....324

TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH

Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar dinamikasini iqtisodiy prognozlash.....335

G'ULOMOVA SHAXLO BAXTIYOR QIZI

Improving strategic and operational management of construction projects in uzbekistan: a conceptual adaptation of a hybrid model.....348

IMOMJON KHAMIDOV

Public perceptions of environmental risks and willingness to pay for environmental protection: evidence from Uzbekistan and Central Asia.....355

ШУКУРОВА ШАХЗОДА ДЖАЛОЛОВНА

Влияние инфляционных процессов на развитие внешней торговли Республики Узбекистан.....365

ABDILXATOV ULUG'BEK ABDULQUDDUS O'G'LI

O'zbekiston bank tizimida islom investitsiya mahsulotlarini joriy etishning korxonalar faoliyati samaradorligiga ta'siri.....375

ESHTEMIROVA MA'RIFAT AKRAM QIZI

Digital transformation of the banking sector and financial inclusion in Uzbekistan.....383

JUMAQULOV TEMUR

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida mahsulot tannarxini kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari.....391

RAXMATOVA JO'RAXONPOSHSHO QAXRAMON QIZI

Ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyati: nazariy asoslari va boshqaruv mexanizmi.....397

TASHPULATOVA MUNIRAXON MAHMUDOVNA

Korxonalarda risk boshqaruvi orqali xodimlar salohiyatidan samarali foydalanishni baholash usullari va modellari.....405





JAMSHID SHODMONOV

The growth of online shopping in Uzbekistan and its impact on consumer behavior.....412

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI

Xususiyl tadbirkorlik: kichik biznesning rivojlanishi va strategik yutuqlari.....426

TASHNAZAROVA SITORA FAXRIDDINOVNA

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.....432

ERGASHEVA SHAXZODA BAHROM QIZI

Sun'iy intellekt yordamida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish.....442

BAHROM KAMILOVICH AVEZOV

Orol dengizi mintaqasida qashshoqlikni kamaytirish: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va institutsional yondashuvlarning ko'p o'lchovli tahlili.....448

MAHMUDOV QUDRATILLO XURSANDBEK O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro standartlar va milliy amaliyot.....458

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

OCHILDIEV UKTAM OLLANAZAROVICH

Surxondaryo viloyatida anor yetishtirishning agroteknologik xususiyatlari.....466

XUDAYQULOV JONIBEK BOZAROVICH, QASHQABOYEVA CHULPANOY TULKUNOVNA, ALISHEROV XASAN ALISHER O'G'LI

Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda sholini muttasil yetishtirishda mineral va organik o'g'itlar qo'llashning hosildorlikga ta'siri.....472

ЧОРИЕВА ЗАРХОЛ ҚОДИРОВА

Суғориш усуллари ва тартибини анор навлари фенологик фазаларининг ўтиш муддати ва давомийлигига таъсири.....478

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH

Oraliq ekin sharoitida turli ekish sxemalarining piyoz hosildorligiga ta'siri.....484

МАВЛОНОВА НАСИБА УМАРОВА

Оптимал суғориш ва сув танқислиги шароитида ғўзанинг навлараро мураккаб дурагайларида олинган оила, тизма ва навида 1000 дона чигит вази белгисининг шаклланиши.....488

MUXTOROV O'ZBEKXON BURHONOVICH

Davlat mulkchiligi sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarini me'yoriy baholashning gibrid modeli: obyektiv va bozor signallarini integratsiyalash asosida.....493

YO'LDOSHEV NURBEK ERGASHOVICH, SAYFULLAEVA MAXBUBA ILXOMOVNA

«Alpek» mahalliy antigelmint substansiyasining quyonlarda o'tkir toksikligini klinik, gematologik va biokimyoviy baholash.....501

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Baholash natijalari asosida yer tuzish loyihalarini optimallashtirish.....509





XUSUSIY TADBIRKORLIK: KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISHI VA STRATEGIK YUTUQLARI

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Turizm fakulteti 2-kurs talabasi

E-mail: erkaboyevajasmina2007@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning mamlakat iqtisodiyoti rivojidagi ahamiyati tahlil qilingan. Unda ushbu sohaning yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda milliy mahsulotni jahon bozorlariga olib chiqishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, huquqiy va moliyaviy yordam, innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish va eksport faoliyatini kengaytirish bo'yicha takliflar berilgan. Ushbu maqola kichik biznesning yutuqlarini yoritish va uni yanada rivojlantirishga oid dolzarb masalalarni o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, kichik va o'rta biznes (KOB), Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, yalpi ichki mahsulot (YaIM), eksport, iqtisodiy erkinlik, raqobatdoshlik.

Аннотация. В данной статье проводится глубокий анализ важной роли частного предпринимательства и малого бизнеса в национальном экономическом развитии. Особое внимание уделяется вкладу этого сектора в создание новых рабочих мест, повышение доходов населения, внедрение инновационных решений и экспорт национальной продукции на мировые рынки. Кроме того, рассматриваются необходимые механизмы поддержки развития малого бизнеса, включая правовые и финансовые возможности, стимулирование инновационных идей и предложения по расширению экспортной деятельности. Основная цель статьи — продемонстрировать достижения малого бизнеса и выявить проблемы, препятствующие его устойчивому развитию, тем самым обозначив пути дальнейшего развития.

Ключевые слова: частное предпринимательство, малый бизнес, малый и средний бизнес (МСБ), Агентство по развитию предпринимательства, инновации, цифровые технологии, валовой внутренний продукт (ВВП), экспорт, экономическая свобода, конкурентоспособность.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the crucial role of private entrepreneurship and small businesses in national economic development. It specifically highlights the contribution of this sector to creating new jobs, generating higher incomes for the population, implementing innovative solutions, and exporting national products to global markets. Furthermore, it outlines the necessary support mechanisms for small business development, including legal and financial opportunities, incentives for innovative ideas, and proposals for expanding export activities. The main objective of the article is to showcase the achievements of small businesses and identify the challenges hindering their sustainable development, thereby outlining pathways for future growth.

Keywords: private entrepreneurship, small business, small and medium-sized enterprises (SMEs), Entrepreneurship Development Agency, innovation, digital technologies, gross domestic product (GDP), export, economic freedom, competitiveness.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda xususiy tadbirkorlik kichik biznesdan yirik muvaffaqiyatlarga erishishda asosiy omillardan biriga aylandi. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsiyalarni joriy qilish kabi jarayonlarda kichik biznes subyektlarining hissasi muhim. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida xususiy tadbirkorlik iqtisodiy islohotlarning markaziy





qismida joylashgan hamda davlat tomonidan yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar ushbu sohaning kengayishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasida kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalari alohida o'rin egallaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilangan ushbu strategiyada iqtisodiy o'sish innovatsiyalarni rivojlantirish va xususiy sektorni mustahkamlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ko'rsatilgan. [1] Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, ularni rivojlantirish maqsadida moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq tizimini soddalashtirish va infratuzilma imkoniyatlarini kengaytirish kabi turli yo'nalishlar rejalashtirilgan. Shuningdek, innovatsiyalarni rag'batlantirish va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dastur ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda kichik biznesni umuman olganda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholimiz turmush darajasini yaxshilashimiz, farovonligini oshirishimiz mumkin. Shu sababli, jahon tajribasidan namuna olgan holda hukumatimiz ham xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator huquqiy asoslar ishlab chiqmoqda. Jumladan, mazkur sohani rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublika Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va intutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-306-son qarori bilan kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturi qabul qilingan. [2]

Mamlakatimizda xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan qator qaror va dasturlar qabul qilinganligiga qaramasdan iqtisodiyotimizda davlat ulushi hamon yuqori bo'lib qolmoqda. Agar ushbu holat shunday davom etaversa, iqtisodiyotimizda bir qator muammolar to'planib qolib, bozor iqtisodiyotiga to'liq o'tish ham xalqimiz uchun utopiyadek tuyulishi mumkin.

Xususiy tadbirkorlik, jumladan, kichik va o'rta biznes rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida bu sohaga mas'ul alohida davlat organi mavjud. Shuningdek, mamlakatimizda ham Prezidentimizning 2019-yil 13-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-4417 qaroriga muvofiq ushbu tashkilot o'z faoliyatini boshlagan. [3] Ushbu agentlikning asosiy maqsadi kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish va investitsion loyihalarga moliyaviy jihatdan ko'mak berishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur soha bo'yicha ilmiy-adabiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish masalari ko'plab xorij tadqiqotchilari, shuningdek, iqtisodchi yurtdoshlarimiz e'tiborida bo'lib kelgan global masaladir. Tadqiqot mavzusiga tegishli bo'lgan ko'plab ilmiy ishlarda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning rivojlanish tendensiyalari va uning iqtisodiy-ijtimoiy samarasiga bag'ishlangan muhim jihatlar yoritilgan.





Shuningdek, uzoq xorij olimlaridan G.Justin, William Petty, Leslie E.Palich “Small business management: launching and growing entrepreneurial ventures” (2022), Gail Hiduke, J.D.Ryan “Small business: an entrepreneur’s business plan” (2018) tadqiqotlarida xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rejalashtirish, boshqarish va rivojlantirish jarayonlari hamda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning tadbirkorlikka ta’siri aytib o’tilgan. [4]

Ushbu iqtisodiy tarmoq tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, mashhur iqtisodchi olim David Binch o’zining 1979-yilgi tadqiqotida kichik biznesni “iqtisodiyotning motori” sifatida talqin qiladi. Chunki o’sha paytda AQSHda ish o’rinlarining katta qismi yirik kompaniyalardan ko’ra kichik va o’rta biznes subyektlari tomonidan yaratilayotgan edi. Ushbu tadqiqot kichik biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyatini yangicha yondashuvda baholashga sabab bo’lgan. [5]

Yurtdoshlarimizdan D.S.Qosimova “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik”, Halim Hamroyev “Tadbirkorlik asoslari” kitoblari, shuningdek, Dilshod Ismailov va Oybek Utbasarov (2021) “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik”, Meliboyeva Gulxon (2021) “O’zbekiston sharoitida kichik biznesni investitsiyalashning o’ziga xos xususiyatlari”, Ubaydullayev, A. T. (2024) “Kichik biznes faoliyatini qo’llab-quvvatlashda mahalliy boshqaruv bilan mushtarak jihatlarining o’ziga xos xususiyatlari” kabi tadqiqotlarida mamlakat iqtisodiyotidagi kichik biznesning o’rni, uning rivojlanish tendensiyalari hamda uning rivojlanishiga to’sqinlik qiluvchi omillar ko’rsatilib, yetarlicha taklif va tavsiyalar berilgan. [6]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi sifatida aynan xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sohasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar tahlil qilinadi, shuningdek, ushbu maqolada bir qator online manbalardan olingan ma’lumotlar hamda kichik biznes to’g’risidagi hukumat qarorlari va Prezident farmonlari o’z aksini topgan. Chunonchi, mamlakatimizda kichik va o’rta biznesni rivojlantirishda jahon tajribasiga tayanishimiz va O’zbekiston sharoitida ushbu sinalgan tajribalarni qo’llashimiz muhim hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez, statistik guruhlash, va boshqa ilmiy usullardan keng foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O’zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim rol o’ynamoqda. Davlat tomonidan bu sohani rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar va yaratilayotgan qulay sharoitlar o’z samarasini bermoqda. So’ngi yillarda kichik biznes subyektlarining soni ortib, ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda. Jumladan, 2023-yil yakunlariga ko’ra kichik biznesning Respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 51,2% ni tashkil etgan [7], 2024-yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko’ra esa kichik biznes iqtisodiyotdagi yalpi qo’shilgan qiymatining 47,5% ni tashkil etmoqda [8].





1-jadval

**2020-2024-yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes)
da yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat**

Yillar	2020	2021	2022	2023	2024
Ulushi, % da	56,6	56,9	54,4	53,7	53,8
Hajmi, mlrd so'm	249 726,4	309 802,3	358 444,3	430 524,7	521 233,0

Manba: <https://www.buxstat.uz/uz/matbuot-markazi/buxoro-yangiliklar/12022-kichik-tadbirkorlik-biznes-ning-yaim-yahm-dagi-ulushi-qanday>

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning asosiy yutuqlari yangi ish o'rinlarini yaratishda namoyon bo'lmoqda. Xususan, so'ngi o'n yil mobaynida ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiy soning 49,7% dan 74,5 % gacha oshganligini ko'rsatmoqda. [9] Bundan tashqari kichik biznes innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, eksport hajmini oshirish va mahalliy bozorda raqobatni kuchaytirishda faol ishtirok etmoqda.

Biroq, hali ham ushbu sohada bir qator muammolar mavjud. Masalan, ayrim tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan, yangi texnologiyalarni joriy qilishda tajriba va bilim yetishmaydi. Xususi tadbirkorlikning rivojlanishi uchun esa qonunchilikning oddiy va tushunarli bo'lishi juda muhim hamda tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida soliqlarni kamaytirish, soliq imtiyozlarini kengaytirish va korrupsiyani kamaytiruvchi mexanizmlarni joriy qilish zarur. Shuningdek, kichik biznesni rivojlantirishda dastlab davlat xizmatlarida shaffoflikni ta'minlashimiz kerak. Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat tomonidan qo'shimcha choralar ko'rilmoqda. Jumladan, biznes uchun 2024-2025-yillarga mo'ljallangan soliq imtiyozlari, ularni qo'llab-quvvatlash fondlari va maxsus ta'lim dasturlari tashkil qilinmoqda. [10]

Shu bilan bir qatorda, muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyati uchun sog'lom biznes rejani ishlab chiqish, qabul qilingan xatarlarning kelib chiqish oqibatlarini bashorat qilish va hisoblash, yangi texnologiyalarni joriy etish, faoliyatni diversifikatsiya qilish, biznesni rivojlantirishning to'g'ri strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish alohida ahamiyatga egadir. Iqtisodiy erkinlik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun hal qiluvchi shartlardan biri hisoblanadi. Jamiyatda iqtisodiy erkinliklar mavjud bo'lgan taqdirda, har bir qonunga bo'ysunuvchi fuqaro o'z qobiliyatidan, imkoniyatlaridan hamda o'z mulkidan foydalangan holda faol iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadi. Iqtisodiy erkinlikni mohiyati vakolatli tadbirkorlik subyektlariga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan davlat kafolatidir. [11]





Mamlakatimizda 2024-yil holatiga ko'ra, yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi jihatidan eng ko'p korxona va mikrofirmalar savdoda, xizmatlar sohasida hamda qishloq xo'jaligida tashkil etilgan hisoblanadi.

2-jadval

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, 2024-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan %da

Iqtisodiy tarmoq	Savdo	Sanoat	Qurilish	Qishloq, o'rmon, baliqchilik xo'jaligi	Xizmatlar sohasi
Jamiga nisbatan %da	43,9	21,6	4,0	7,6	22,9

Manba: <https://images.app.goo.gl/ud35eqiMEgMgXD8D6>

Natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususioy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki ijtimoiy muammolarni hal qilishga ham sezilarli hissa qo'shmoqda. Kelgusida ushbu yo'nalishda yangi islohotlarni amalga oshirish, tadbirkorlarning malakasini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni kengroq joriy qilish orqali katta yutuqlarga ershish mumkin. Shu tariqa kichik biznesning davlat iqtisodiyotidagi o'rni yanada mustahkamlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. U ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadini oshirish va innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Kichik biznesning tez rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyot barqarorligi mustahkamlanmoqda, jahon bozorlarida raqobatdosh mahsulotlar paydo bo'lmoqda. Shuningdek, bu soha tadbirkorlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirib, davlat va jamiyatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda mamlakatimizda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiyotimizning global maydondagi raqobatdoshligini ta'minlashi turgan gap. Shuningdek, mamlakatimizda kichik biznesni yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhim hisoblanadi:

- qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- huquqiy va moliyaviy yordam ko'rsatish;
- innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish;
- eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Ushbu takliflar xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi, natijada mamlakat iqtisodiyoti mustahkamlanadi va aholining turmush darajasi oshadi. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes





iqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bu soha yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda strategik ahamiyatga ega. Kichik biznesni rivojlantirish mamlakatning barqaror kelajagini ta'minlaydi.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2023) "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, PF-158-son // <https://lex.uz/docs/-6600413?utm>
2. O'zbekiston Respublika Prezidentining (2023-yil 14-sentabr) "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va intutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-306-son qarori // <https://lex.uz/docs/7560042?ONDATE=16.09.2023&utm>
3. O'zbekiston Respublika Prezidentining (2019-yil 13-sentabr) "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish tog'risida"gi PQ-4417 qarori // <https://lex.uz/docs/-4472973?ONDATE=14.08.2019%2000>
4. Ryan, J. D. and Gail P. Hiduke. "Small business : an entrepreneur's business plan." (2003).
5. David Binch (1979) "The Job Generation Process" https://en.wikipedia.org/wiki/David_L._Birch
6. Ubaydullayev, A. T. (2024). "Kichik biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashda mahalliy boshqaruv bilan mushtarak jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari". Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(4), 10-15. <https://zenodo.org/records/13132195>
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari. <https://www.namstat.uz/uz/qo-mita-yangiliklar/12701-kichik-biznesning-yaim-yahm-dagi-ulushi-qanday>
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/56297-2024-yilning-yanvar-iyun-oylarida-kichik-tadbirkorlik-biznes-ning-yalpi-ichki-mahsulotdagi-ulushi-qanday?>
9. Ubayeva Sultanpashsha Saidkarimova (2024) "The importance of small business and private entrepreneurship" International scientific journal "Modern science and research", 3(6). 740-744 b.
10. Biznes uchun soliq imtiyozlari 2024-2025. <https://azma.uz/tpost/01jzkxibr1-biznes-uchun-soliq-imtiyozlari-2024-2025>
11. D.S.Qosimova (2020) "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik", Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 328 b.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**